

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

National and cultural features of brand names	589
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Qotillik" mikromaydoni.....	596
X.P.Shodmonov	
Idiostil va stilistik konvergensiya munosabatining lingvopoetik tadqiqi.....	601
X.Matnazarova	
Diskurs tenorida adresant rollarning lingvistik tahlili	606
J.Q.Ismonaliyev	
Zamonaviy o'zbek tilshunosligida fe'l va zamonlarning o'rganilishi	609
M.A.Abduolimova	
Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'xshatishlarning mazmuniga ko'ra turlari.	612



UO'K: 811.111'37:008:343

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "QOTILLIK" MIKROMAYDONI
«УБИЙСТВО» МИКРОПОЛЯ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ
THE MICRO FIELD OF "CRIME" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Ismoilova Diloromxon Rustamjon qizi 
Farg'ona davlat universiteti, ingliz filologiyasi kafedras o'qituvchisi

Annotatsiya

Ingliz va o'zbek tillarida "jinoyat" semantik maydoniga birikuvchi mikromaydonlar orasida "qotillik" mikromaydoni tarkibi undagi elementlar xilma-xilligiga ko'ra miqdoran ustun hisoblanadi. Garchi salbiy ma'no nozikligiga ega bo'lsa-da, ikki xalqning turmush tarzi va uzoq o'tmishidagi o'ziga xosliklarni qamrab oluvchi mazkur mikromaydon, chog'ishirilayotgan tillarda turlicha verballashadi. Ushbu maqlolada mikromaydonning markazi va periferik a'zolari semantik jihatdan tahlil qilinadi. Ular orasidagi o'zaro munosabatlar asosida "qotillik" semantikasini ifodalovchi leksik birliklarning bir mikromaydonga birikishi asoslanadi. Bugungi kungacha ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda "qotillik" mikromaydonining yadro elementi sifatida "murder" leksemasi hisoblansa, o'zbek tilida "jinoyat" semantikasini ifodalanishi maydon nazariyasi asosida tadqiq etilmagan. Muallif Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistrantlari bilan so'rovnomda o'tkazgan holda, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilarning muloqotida eng ko'p qo'llaniladigan leksik birlik, ya'ni "qotillik" mikromaydonining markazi elementini aniqlashga erishilgan. Bunda natijalar farqli bo'lganligi, global ingliz tili ta'sirida ekanligi dalillangan.

Аннотация

В английском и узбекском языках среди микропространств, присоединяющихся к семантическому полю "преступление", состав микропространства "убийство" количественно преобладает в соответствии с разнообразием содержащихся в нем элементов. Несмотря на тонкость негативного смысла, этот микромир, охватывающий особенности образа жизни и далекого прошлого двух народов, по-разному вербализуется в языках, на которых говорят. В этой статье семантически анализируются центральные и периферийные члены микропространства. На основе взаимодействия между ними строится объединение лексических единиц, представляющих семантику "убийства", в одно микропространство. На сегодняшний день в англоязычных исследованиях в качестве основного элемента микропространства "убийство" рассматривается лексема "убийство", в то время как в узбекском языке выражение семантики "преступление" не исследовалось на основе теории поля. Автором проведен опрос студентов 2 ступени Ферганского государственного университета, в ходе которого удалось определить наиболее часто используемую лексическую единицу в общении изучающих английский как иностранный язык, то есть центральный элемент "убийственного" микропространства. При этом было доказано, что результаты различаются под влиянием глобального английского языка.

Abstract

In English and Uzbek, among the microspaces joining the semantic field "crime", the composition of the microspace "murder" quantitatively prevails in accordance with the variety of elements contained in it. Despite the subtlety of the negative meaning, this microcosm, covering the peculiarities of the lifestyle and the distant past of the two peoples, is verbalized differently in the languages spoken. This article semantically analyzes the central and peripheral members of the microspace. On the basis of the interaction between them, the unification of lexical units representing the semantics of "murder" is built into one microspace. To date, in English-language studies, the lexeme "murder" is considered as the main element of the microspace "murder", while in the Uzbek language the expression of semantics "crime" has not been studied on the basis of field theory. The author conducted a survey of students of the 2nd stage of Ferghana State University, during which it was possible to determine the most frequently used lexical unit in the communication of students of English as a foreign language, that is, the central element of the "murderous" microspace. At the same time, it was proved that the results differ under the influence of the global English language.

Kalit so'zlar: mikromaydon, semantik maydon, markazi element, chekka element, leksema, leksik bo'shliq, nutq, adabiy til

Ключевые слова: микрополе, семантическое поле, центральный элемент, периферический элемент, лексема, лексическое лакуна, речь, литературный язык

Key words: microfield, semantic field, central element, peripheral element, lexeme, lexical gap, speech, literary language

INTRODUCTION

Turli tizimdagi tillarda “jinoyat” semantik maydonini jamiyatga qaratilgan jinoyatlar, tabiiy muhit, mulkka qaratilgan jinoyatlar va til vositasida sodir bo‘ladigan jinoyatlar nomli uchta mikromaydonga ajratish mumkin. Bu mikromaydonlar o‘z ichiga qotillik, inson huquqlariga qarshi jinoyatlar, jamiyatga qarshi jinoyatlar, atrof-muhitga qarshi jinoyatlar, o‘g‘rilik, kiberjinoyatlar, giyohvandlik moddalari bilan bog‘liq jinoyatlar singari 14 ta kichik maydonlarni birlashtiradi. Mazkur sistemalarga bo‘lish tamoyili maydon birliklarining o‘zaro munosabatini, ularning maydondagi o‘rnini belgilashga imkon yaratadi.

Jahon tilshunosligida semantik maydon nazariyasi borasidagi qarashlar maydonning murakkab tabiatni, o‘zgaruvchan tarkibi, undagi birliklarning o‘zaro zidlanishi, bir elementning turli maydonlarga birlasha olish xususiyatlarni qamrab oldi. Semantik maydon tadqiqiga doir ishlar natijasida sintagmatik, paradigmatic, assotsiativ, sintaktik, grammatical, funksional-semantik hamda makro va mikro maydonlar yuzaga keldi. Turli tizimga mansub tillarda “jinoyat” tushunchasining o‘zi yoki jinoyatning qaysidir turi tahlilga tortilgan. Shu sababli, bugungi kunda ingliz va o‘zbek tillaridagi “jinoyat” tushunchasini yaxlit bir maydon sifatida o‘rganish, undagi komponentlarning birlashtiruvchi va farqlovchi xususiyatlarni atroflicha tahlil qilish zarurati kelib chiqadi. Qolaversa, jinoyat semantikali lisoniy birliklar tadqiqiga doir ishlarda mazkur birliklarning mukammal tasnifi amalga oshirilmagan.

Jinoyat – o‘zgaruvchanlik va universallik tabiatiga ega tushuncha bo‘lib, unga, asosan, yuridik terminosistemaning bir qismi sifatida yondashuvchi tadqiqotlar talaygina, biroq u alohida bir semantik maydon sifatida monografik planda tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada “qotillik” mikromaydonining tarkibi, uning lingvistik xususiyatlari va ingliz va o‘zbek tillaridagi farqli va o‘xhash jihatlari tahlilga tortilgan va badiiy adabiyotdan olingan misollar asosida dalillangan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Ma’lumki, semantik maydon nazariyasining dastlabki talqinlarida faqat paradigmatic munosabatlar ustunlik qilgan. Keyinchalik struktur tilshunoslardan sintagmatik munosabatlar ham semantik maydon asosini tashkil qilishini isbotladi. Nemis tilshunosi V.Porsig so‘zlarning o‘zaro birikish imkoniyatlarni nafaqat grammaticaliga, balki ma’noviy xususiyatlarga ham tayanishini ta’kidladi.[4,74] Bir necha yillardan so‘ng, sintagmatik munosabatlarni ifodalash uchun tilshunos olim J.Fert tomonidan kollokatsiya,[2,67] J.Katz va J.Fodor tanlashdagi cheklolalar, [3,182]E.Koseryu esa leksik yaxlitlik [1,300] terminlarini qo’lladi. Biz ham ishimizda so‘zning bir qarashda anglanmaydigan ma’no noziklilari, u joylashgan sintagmatik maydonda ochiq namoyon bo‘lishi borasidagi ilmiy qarashlarni rivojlantirgan holda, jinoyat semantik maydonidagi elementlarning sintagmatik munosabatlarini ko‘rsatishni maqsadga muvofiq deb topdik. Jumladan, bloody, vicious, grisly, savage, horrific, gruesome va brutal so‘zlarini “qotillik” kichik maydonidagi murder komponenti bilan qo’llash, qotillikning o‘ta vaxshiy va yoqimsiz tarzda sodir etilganiga ishora qiladi.

I don’t suppose poor Miss Greenshaw wanted to die, and it was a particularly brutal murder. (Agatha Christie. “Greenshaw’s Folly”)

Cold-blooded, deliberate, wilful va premeditated so‘zlar bilan yonma-yon kelganda esa murder leksemasining “atayin rejalashtirilgan” va “hech qanday his-tuy‘uga berilmasdan” semalari ochiq anglashiladi.

And there are other murderers more calculating, sadistic and brutal than those within the underworld. (Duncan Campbell. “The Underworld”)

O‘zbek tilida mudhish, dahshatli, shafqatsiz, vahshiyona, qonli, sirli, oshkora qotillik kollokatsiyalari mazkur jinoyatning qay tarzda sodir etilganligini ko‘rsatsa, *oddiy, murakkab, seriyali, yollanma, ochilmagan, ommaviy qotillik* kabi sintagmatik birikmalar yuridik diskursda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Badiiy va so‘zlashuv uslublarida *imonsiz, razil, yaramas* kabi leksemalar esa qotil leksemasi bilan bir sintagmatik maydonda birlashadi.

Qotillik bo‘lishi kerak! Qonli qotillik. (Agata Kristi. “Alifbo bo‘yicha qotillik”)

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilining leksik fondida qotillik ma’nosini tashuvchi til birliklari miyosi keng bo‘lib, ular ma’lum bir farqlovchi belgi bilan maydonaro antonimiya hosil qiladi. Ushbu munosabat natijasida

esa maydonning chegaralari aniqlanadi. O'zbek tilidagi "qotillik" mikromaydonini vogelantiruvchi leksik elementlar kam sonli bo'lib, bu esa "jinoyat" semantik maydonida leksik bo'shliq borligini tasdiqlaydi. Masalan, ingliz tilidagi manslaughter, felony murder va abetting suicide kabi jinoyat turlari o'zbek tilida tub so'z orqali ifodalanmasdan, balki so'z birikmalari yordamida ifodalanadi. Jumladan, jinoyat kodeksida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish, ehtiotsizlik orqasidan odam o'ldirish, o'zini-o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatlari keltirib o'tilgan.

Qolaversa, ingliz tilida deyarli har bir kasb yoki oila a'zolari va qarindoshlarga nisabatan amalga oshirilgan qotillik jinoyati alohida, mustaqil bir leksema vositasida verballashsa, o'zbek tilida mazkur leksemalarning aksariyati tilda o'z aksini izohlar orqali topadi. Quyidagi jadvalda o'zbek tilida yuzaga keladigan leksik bo'shliqlar ko'rsatib berilgan.

1-jadval. Ingliz va o'zbek tillarida "qotillik" kichik maydonining ifodalovchilari

#	Ingliz tilida	O'zbek tilida	Izoh orqali ifodalash
1	patricide	padarkushlik	
2	matricide	—	o'z onasini o'ldirmoq
3	filicide	bolakushlik	* o'z bolasini o'ldirmoq
4	fratricide	—	opasi yoki akasini o'ldirmoq
5	soricide	—	opasi yoki singlisini o'ldirmoq
6	femicide	—	ayol kishini o'ldirmoq
7	ambicide	birodarkushlik	
8	uxoricide	—	o'z xotinini o'ldirmoq
9	infanticide	bolakushlik	umumiyl ma'noda bola o'ldirmoq
10	senicide	—	qariyalarni o'ldirmoq
11	multicide	-	ko'pchilikni o'ldirmoq
12	suicide	xudkushlik	

Tahlil natijalari jadvalda keltirilgan leksik birliklardan faqat 5 tasi – patricide, filicide, ambicide, suicide va infanticidelargina o'zbek tilida o'z muqobillariga ega ekanligini ko'rsatadi.

Parents are most often the killers in cases of infanticide. (A.Alvarez and R.Bachman. "American style murder")

Padarkushligim rost bo'lsa, Xudo avval ko'zimni ko'r qiladi. (Tohir Malik. "So'nggi o'q").

Ona tilimizdagи "qotillik" mikromaydonining yadro qismini qotillik leksemasi tashkil qiladi. Unga "odam o'ldirish" deb izoh beriladi. Qotil esa "odam o'ldiruvchi" 6yoki "odam o'ldirgan shaxs" deb ta'riflangan.[6,198] Bosh qomusimizda ushbu jinoyat "qasddan odam o'ldirish" sifatida vogelanadi.[5]

Qotillik haqidagi shum xabar olinishi bilan Soli tezkor guruh bilan bu yerga yetib kelgan... (Tohir Malik. "Talvasa").

Odamkushlik – "odam o'ldirish bilan shug'ullanish"[7,85] ma'nosini tashuvchi arxaik so'z bo'lib, badiiy matnlarda va publisistik materiallarda ta'sirchanlikni oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Badiiy uslubda qattol so'zi qotil leksemasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Umumxalq tilida esa jallod so'zi ko'chma ma'no ottenkasiga ko'ra qotilga tenglashtiriladi. Bu sinonimik qatorga mansub kallakesar leksemasi so'zlashuv uslubida va kriminal olam vakillari nutqida ko'p qo'llaniladi. Sinonimik tarkibda killer neologizmi ham mayjud bo'lib, "qotil" birlashtiruvchi semasiga ko'ra umumiylik va "yollanma" differensial semasi orqali xususiylik kasb etadi. Killer esa nutqda ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralangani sababli umumnutq so'zi hisoblanmaydi. Oddiy so'zlashuv nutqiga xos so'z sifatida rasmiy uslubda deyarli kuzatilmaydigan mazkur leksema badiiy uslubda keng qo'llaniladi.

– Killering nima?

– Pulga odam o'ldirib beradiganlarni "killer" deyishadi. (Tohir Malik. "Murdalar gapirmaydilar").

O'zbek tilidagi "qotillik" mikromaydoniga birlashuvchi bir nechta komponentlarning ma'lum bir nutq uslubiga xos jihatlari va adabiy til nuqtayi nazaridan tahlil qilib ko'ramiz. Masalan, qirib yubormoq va tig' sanchmoq hozirgi o'zbek tilida faol tarzda qo'llanilmaydigan birliklar bo'lib,

TILSHUNOSLIK

tinchitmoq, yo'qotmoq leksemalari so'zlashuv uslubida keng qo'llanilib, asosan, jinoyatchilar nutqida namoyon bo'ladi.

Karoche, Polvonni kimdir tinchitibdi. (Nuriddin Ismoilov. "Iblis sultanati")

Mikromaydondagi qotillik qilmoq, o'ldirmoq, chavaqlab tashlamoq elementlari orasida o'zaro sinonimik hamda darajalanish munosabatlari ko'zga tashlanadi. Ular "qotillik" ma'nosi ostida birlashsa-da, ma'lum semantik o'ziga xosliklar sababli darajalanadi. Masalan, o'ldirmoq leksemasi ko'p qo'llanishi va uslubga ko'ra neytral hisoblanadi. Mikromaydonga mansub chavaqlab tashlamoq leksemasi qotillikni eng baland salbiy bo'yoqlar bilan, kuchli tarzda voqelantiruvchi komponent sifatida namoyon bo'ladi. Disfemistik yondashuv sifatida chavaqlab tashlamoq jinoyat olamida qotillik tushunchasini qo'pol tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Kichik sistema hisoblangan "qotillik usullari" mazmuniy guruhiga birlashuvchi leksemalar ham "jinoyat" semantik maydonini umumiylashtirib turuvchi birliklar sanaladi. Bu paradigmaga ingliz tilidagi poisoning, asphyxiating (suffocating), shooting (firing), chopping, slashing, knifing, stabbing, euthanasia, strangulation, throttling, necklacing, slip-knifing kabi leksik birliklarni kiritishimiz mumkin.

She was convicted of poisoning her husband by arsenic after a lengthy trial in 1840. (Suzanne Bell. "Dictionary of forensic science").

O'zbek tilida esa "qotillik usullari" semasini pichoqlamoq (pichoq urmoq, pichoq sanchmoq, pichoq tortmoq), zaharlamoq, bo'g'ib o'ldirmoq, bo'g'izlamoq, otib o'ldirmoq, (otib qo'ymoq, otib tashlamoq), chopib tashlamoq, so'yib tashlamoq, osib o'ldirmoq kabi lug'aviy birliklar ifodalab keladi. Ushbu paradigmaga mansub bo'yniga sirtmoq solmoq, og'u bermoq so'zları badiiy matnlarga xos bo'lsa, dorga osmoq arxaizm hisoblanadi. Ular orasida zaharlamoq, og'u bermoq, pichoqlamoq kabi leksemalar "o'ldirish" ma'nosini ochiq ifodalab kelmaydi.

Qorong'i hovliga, so'ng qorong'i xonaga kirganida "kuragim ostiga hozir pichoq sanchiladi" deb kutdi. (Tohir Malik. "Shaytanat").

"Qotillik" semasini ifodalovchi leksemalar mikromaydon ichida bir-birlari bilan ma'nodoshlik, tur-jins va darajalanish munosabatlari kirishadi. Ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, I.Lengfordning dissertatsiyasida [4,168] "qotillik" semasiga ega komponentlar orasida *murder* leksemasi markaziy o'rinda turishi ko'rsatiladi. Lekin mazkur tadqiqot jinoyat semantik maydonini o'zbek tilida tadqiq etayotgan dastlabki ish bo'lganligi sababli ushbu mikromaydonning yadro (markaziy) elementini aniqlash uchun so'rovnama o'tkazdik.

Mazkur so'rovnomada qatnashish uchun Farg'ona davlat universiteti Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi 2-bosqich magistrantlari tanlab olindi. Yuzma-yuz o'tkazilgan so'rovnomada magistrantlardan ingliz tilidagi qotillik ma'nosini ifodalovchi so'zlarni faoliyat darajasiga ko'ra 1,2,3 raqamlariga tartib asosida yozib berishlari so'raldi. So'rovnomada 160 nafar magistrant qatnashdi va informantlarning 144 nafari (90%) *kill* leksemasini, 16 nafari (10%) esa *murder* so'zini 1-o'ringa joyladi.

Qotillik kichik maydoni bo'yicha so'rovnama



2.2-rasm. Qotillik kichik maydoni yuzasidan o'tkazilgan so'rovnama natijalari

So'rovnama natijasidan xulosa qila olamizki, ingliz tilini o'z ona tili sifatida so'zlovchi mahalliy aholi hamda ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rjanayotgan so'zlovchilar muloqot jarayonida faol tarzda qo'llaydigan lug'aviy birliklar o'zaro farq qiladi va bu tilshunoslar ta'biri bilan aytganda "global ingliz tili"ning bir ko'rinishi sifatida tan olinadi.

XULOSA

Xulosa sifatida ayta olamizki, "jinoyat" semantik maydoniga mansub elementlar bir paytda bir necha mikromaydonlarga tegishli bo'lish xususiyatiga ega. Shuningdek, maydon elementlarining tegishlilik hamda maydondag'i o'rni kabi xususiyatlari zamon va makonda farqlanadi. Bunga jinoyat turlarining turli xalqlarda o'ziga xos talqin qilinishi va ularning semantik tuzilishi asos bo'ladi. "Jinoyat" semantik maydonidagi metaforik ifodalarning qo'llash maqsadi va ularning talqinida o'xshashliklar kuzatildi. Komponent tahlil natijalariga ko'ra, bir tushunchani anglatuvchi lisoniy birliklar har ikki tilda turli ma'noviy tarkibga ega bo'ladi. Ingliz tilidagi "qotillik" mikromaydonini leksik sathda ifodalovchi birliklar o'zbek tiliga nisbatan miqdoran ko'p bo'lib, bunda ba'zi tushunchalar o'zbek tilida muayyan nomga ega emasligi bilan asoslanadi. Turli tizimli tillardagi "qotillik" mikromaydoniga oid elementlar maydon ichida o'zaro ma'nodoshlik, zidlov va darajalanish munosabatlari kirishadi.

Mazkur mikromaydonga birikuvchi elementlar turli nutq uslublarida qo'llanilishi bilan farqlandi. Shuningdek, "qotillik" mikromaydoni tarkibi to'xtovsiz yangilanib boradi. Ushbu ilmiy qarashni ularning aksariyati arxaizmga aylanib ulgurgani va mikromaydonga bir nechta neologizmlar qo'shilgani ham dalillaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Coseriu E. Lexicalische Solidaritäten // Poetica 1, 1967. – P. 293-303.
2. Firth J. Papers in Linguistics. Oxford University Press, 1957. – 233 p.
3. Katz J., Fodor J. The structure of a semantic theory // Language 39, 1963. – P. 170-210.
4. Langford I. The semantics of crime. A thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy. Australian national university, 2002. – 415 p.
5. Porzig W. Wesenhafte Bedeutungsbeziehungen // Beiträge zur Geschichte der deutschen Sprache und Literatur, 1934. – S. 70-97.
6. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat kodeksi". 97-modda; <https://lex.uz/acts/-111453>. ("Criminal Code" of the Republic of Uzbekistan. Article 97.)
7. Ҳожиев А., Нурмонов А., Зайнобиддинов С ва бошқ. Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2001. – 336 б. (Hojiev A., Nurmonov A., Zainobiddinov S. et al. An explanatory dictionary of active words of the current Uzbek language. – Tashkent, 2001. – 336 p)
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида, – Тошкент, 2006. – 623 б. (An explanatory dictionary of the Uzbek language. A. Under the editorship of Madvaliev, - Tashkent, 2006. - 623 p.)